

**INKLUZIV TA'LIM SHAROITIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN
O'QUVCHILARNI IJTIMOY, EMOTSIONAL VA AKADEMIK RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Turg'unova Difuza

Oriental Universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18522125>

Annotatsiya. Mazkur maqolada alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarnida emotsional va akademik rivojlantiruvchi texnologiyalarni qo'llash masalasiga bag'ishlangan.

O'quvchining emotsional sohasini rivojlantirishga qaratilgan metodalar, masalan ert-terapiya, o'yinlar va relaksion mashqlar, shuningdek akademik texnologiyalar, differensial yondashuv, jumladan ko'rgazmali materiallar va qadamma-qadam o'rgatish tahlil qilingan.

Maqolada inkluziv ta'limda bu texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati, o'quvchilarda bilim olish jarayonini yengillashtirish, motivatsiyani oshirish, mustaqillik va barqaror akademik natijalarga erishishdagi o'rni ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar, inkluziv ta'lim, emotsional rivojlanish, akademik rivojlanish, art terapiya, ko'rgazmali texnologiyalar.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib ta'lim tizimida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yondashuvlar keng miqyosda rivojlanib bormoqda. Shular qatorida inkluziv ta'lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Inkluziv ta'lim, alohida ta'lim olishga ehtiyoji bo'lgan bolalarning, umumiy ta'lim muhitida teng huquqli ta'lim olishini taminlab beruvchi ta'lim tizimi hisoblanadi. Bu ta'lim tizimida o'quvchilarning faqat akademik bilimlari emas, balki ijtimoiy va emotsional tomonlama rivojlanishi ham muhim hisoblanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar ko'p hollarda ijtimoiy muhitga moslashishda, tengdoshlari bilan muloqot qilishda va o'z his tuyg'ularini, ichki kechinmalarini ifodalashga birqancha qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababdan inkluziv ta'lim sharoitida zamonaviy pedagogik, psixologik va korreksion texnologiyalardan foydalangan holda ularni har tomonlama rivojlanishini ta'minlash eng global masala hisoblanadi.

Sababi ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda munosib o'rin egallashiga barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ushbu maqolada inkluziv ta'lim sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy, emotsional va akademik rivojlantirish texnologiyalari yoritib beriladi.

Inkluziv ta'limning nazariy asoslari va mohiyati.

Inkluziv ta'lim atamasi lotin tilidan olingan bo'liq (includere) kiritmoq, qo'shmoq, ichiga olmoq degan ma'noni anglatadi. Bu ta'lim tizimining asosiy jihati tenglikni ta'minlash, kamsitishning oldini olish va alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarni jamiyatga integratsiya qilishi va o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga qaratilgan ta'lim tizimi hisoblanadi.

Inkluziv ta'lim - shunday o'qitish jarayoniki, o'quvchilarda jismoniy, psixologik, intellektual, madaniy-etnik va boshqa xususiyatlardan qat'iy nazar, umum ta'lim tashkilotlarida nogironligi bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishi jarayoni hisoblanadi.

Inkluziv ta'lim, umumiy ta'limni rivojlantirishning uzluksiz jarayoni hisoblanadi, bu ta'limda barcha o'quvchilar uchun qulay va siyatli ta'lim olishiga qaratilgan ta'lim tizimi hisoblanadi. Bu ta'lim tizimida bolalarning turli ehtiyojlari va qobiliyatlari, har bitta bolaning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari va ta'lim jarayonida erishilgan barcha natijalari hurmat qilinadi va ta'lim jarayonida kamsitishning barcha shakllari bartaraf etiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarni, tengdoshlari bilan birgalikda ommaviy ta'lim tashkilotlarida alohida guruhlarda emas, balki alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lmagan bolalar bilan birgalikda inkluziv ta'lim tizimi asosida o'qitishni anglatadi. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarning individual qobiliyatlari bilan jamiyatda umum qabul qilingan ijtimoiy talablar, ta'lim tashkilotlarida belgilangan akademik muvaffaqiyat mezonlari o'rtasidagi kamchiliklar natijasida yuzaga keladi. Bunday kamchiliklar ta'lim jarayonida o'quv faoliyatining samarali tashkil etilishiga to'sqinlik qilib, o'quvchilarning ta'lim olish jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga dush kelishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, bunday bolalarning ta'lim ehtiyojlarini qondirish maqsadida ta'lim muassasalarida qo'shimcha yoki maxsus didaktik materiallar, ta'lim olish darajalariga moslashtirilgan ta'lim dasturlari hamda maxsus pedagogik va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish talab etiladi.

Inkluziv ta'limning asosiy maqsadi barcha o'quvchilar uchun umum ta'lim muassasalarida to'laqonli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashdan iboratdir.

Bunday ta'lim jarayonida jamiyat tomonidan, nogironligi va alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolgan bolalarda yuzaga keladigan ba'zi muammolarni to'g'ri anglash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Inkluziv ta'lim o'quvchilarga jamiyatga moslashishi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortishi va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi va ularni teng huquqli a'zo sifatida shakillanishiga zamin yaratadi. Shu qatori, inkluziv ta'lim jarayonida sog'lom o'quvchilarda, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarga nisbatan mehr-shavqat, bag'rikengli, o'zaro hurmat va tushunish kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash asosiy va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarni sog'lom tengdoshlari bilan birga o'qitish avvallari ham amada bo'lgan. Lekin bu jarayon hech qanday tayyorgarliksiz va maxsus yondashuvsiz olib borilgan. 2005-yilga kelib tuzilgan tajriba loyihalari orqali tekshirish boshlandi. AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Turkiya va Yaponiyada o'tkazilgan tajribalari o'rganildi.

Dastlabki tajribalarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridan alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilardan 700 nafari ishtirok etdi va ular umum ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishni boshlashdi. Tajriba muvaffaqiyatli o'tkazilishi uchun 800 dan ortiq o'qituvchilarni maxsus tayyorgarlikdan o'tkazildi. Shu qatori, ota-onalarning bu jarayonda faol bo'lgan holda ishtirok etishlariga qaratilgan tadbirlar yo'lga qo'yildi. Sababi, ta'lim jarayonida ota-onalarning ishtiroki bilangina ta'lim jarayonida oldinga siljish, muvaffaqiyatga erishish mumkin. Pedagogning bergan vazifasi uyda bajarilmasa, erishib kelinayotgan natija sekin-astalik bilan yo'qolib ketadi.

Shu sababdan chirchiq davlat pedagogika universitetida ta'lim tizimi asosida inkluziv ta'limning har bir ishtirokchisi uchun aniq maqsadlarga qaratilgan vazifalarni belgilashga alohida e'tibor qaratib kelinyapti. Mazkur loyiha erishilgan natijalar va istiqbolli rejalar mavzusidagi xalqaro konferensiyada samarali tajriba sifatida e'tirof etildi va yuqori baholandi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar jumlasiga o'rta darajadagi intellektual rivojlanish nuqsonlari, nutq buzilishlari, emotsional-xilq atvor buzilishlari, diqqat yetishmovchiligi va boshqa holatdagi o'quvchilar kiradi. Va har bir o'quvchi uchun pedagogik strategiyalarni qo'llashi talab etiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarga moslashtirilgan ta'lim dasturi sezilarli darajada soddalashtirilgan bo'ladi, bunda har bir o'tiladigan mavzuni soddalashtirish va takrorlashga alohida e'tibor qaratiladi. Shu qatori ularga hayotiy ko'nikmalar va amaliy malakalarni shakillantirish muhim hisoblanadi. Inkluziv sinfda ta'lim olivchi o'quvchilar uchun differensial ta'lim ta'moyili asosida faoliyat olib boradi.

Sababi alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar uchun topshiriqlar ularning real imkoniyatlarini inobatga olgan holda, ko'pincha tengdoshlariga nisbatan sodda darajada tanlanadi.

Masalan, bazi o'quvchilar yangi materialni o'zlashtirayotgan vaqtda, intellektual buzilishi bo'lgan bola oldingi bilimlarni mustahkamlashi yoki amaliy topshiriqlarni bajarishi mumkin.

Inkluziv ta'lim jarayonida "Kichik qadamlar" metodi keng qo'llaniladi, ya'ni har bir murakkab ko'nikma ketma-ket, sodda amallar zanjiriga bo'lib o'rganiladi.

Hamda defektologlar tomonidan majburiy ravishda pedagogik korreksion-rivojlantiruvchi ishlar olib boriladi. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarda xotirava tafakkurni rivojlantirish, bilish faoliyatini tuzatish, shuningdek ularda ishonchsizlik hissini yengishga qaratilgan psixologik qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshiriladi.

Xulq-atvori va emotsional buzilishlari mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda noxush xatti-harakatlarni korreksiya qilish va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik qo'llab quvvatlash texnologiyalari muhim hisoblanadi. Bunda xulq-atvor metodikalari, art-terapevtik usullar va relaksatsiya texnikalari qo'llaniladi. O'qituvchi bunday o'quvchilar uchun stressni kamaytirish maqsadida oldindan prognoz qilinadigan muhitni yaratadi hamda yagona yondashuvlarni ishlab chiqishda psixolog va ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Inkluziv jamoada bir vaqtning o'zida qabul qilish va bag'ri kenglik ko'nikmalari ham shakillantiriladi. Boshqa o'quvchilar alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan tengdoshlari bilan o'zaro muloqot qilishni, ularning qiyinchiliklarini sababini tushunishni o'rganadilar.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar toifasiga qarab, maxsus o'qitish va tarbiyalash texnologiyalari tanlanadi. Ammo alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar uchun kompleks va tarmoqlararo yondashuv ustuvor hisoblanadi.

Bu jarayonda o'qituvchi, tor soha mutaxassislari (defektolog, logoped, ijtimoiy pedagog, psixolog), tibbiyot xodimlari va ota-onalarning hamkorligida o'quvchilarni individual rivojlanish dasturini rejalashtiradilar va amalga oshiradilar. Shu ka'bi yondashuvlar akademik, ijtimoiy-maishiy va shaxsiy sohalarni ya'ni rivojlanishning barcha jihatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Hamda o'quvchining ta'lim muhitiga va jamiyatga maksimal darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Inkluziv ta'lim sharoitida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy, emotsional va akademik rivojlantirish texnologiyalari.

Zamonaviy korreksion va inkluziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli texnologiyalarga ega. Inkluziv ta'lim sharoitida keng qo'llaniladigan texnologiyalar:

Inklyuziv ta'limda zamonaviy ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar

1. Differensial va individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari

Inklyuziv sinf o'qituvchisi o'quv jarayonini o'quvchilarning turli boshlang'ich imkoniyatlarini hisobga olgan holda rejalashtiradi. Differensial va individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun mazmun va ta'lim shakllarining variativligini nazarda tutadi. Har bir bolaga o'quv materiali murakkabligining unga mos darajasi, individual ish sur'ati hamda qo'shimcha resurslar (ko'rgazmali vositalar, tyutor yordami va boshqalar) taqdim etiladi.

Masalan, mustaqil vazifa berilgan vaqtida bir o'quvchiga yengillashtirilgan mashqlar yoki ularni bajarish uchun ko'proq vaqt berilishi mumkin, boshqa o'quvchilar esa standart dastur bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar. Individual o'quv rejalari va moslashtirilgan asosiy ta'lim dasturlari ushbu texnologiyalarning muhim amalga oshirish vositalari hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi — har bir o'quvchining o'z ta'limiy salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarishidir.

Korreksion rivojlantiruvchi texnologiyalar.

Korreksion rivojlantiruvchi texnologiyalarga asosan nutq kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan logopedik texnologiyalar, ko'rish va eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda sensor funksiyalarni rivojlantirish metodlari shu bilan birga o'zini boshqarish va kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish metodlari kiradi.

Inkluziv ta'limda terapevtik pedagogika elementlari keng qo'llaniladi: art-terapiya (his tuyg'ularni ifodalash uchun rasm chizish), skazkoterapiya (ertaklar orqali tarbiyalash), musiqaterapiya (musika orqali emotsional sohani rivojlantirish), qum-terapiya (o'quvchi bu terapiya orqali o'z xis-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini va tajribalarini ifodalaydi. Bu kabi texnologiyalar bolalarda psixoemotsional zo'riqishni kamaytirishga va emotsional rivojlanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Bunday texnologiyalardan asosiy maqsad o'quvchining havotirini kamaytirish, o'ziga nisbatan bo'lgan ishonchini oshirish va emotsiyalarni tanish va boshqarishni o'rganish hisoblanadi.

Akademik rivojlantiruvchi texnologiyalar

Differensial ta'limda har bir o'quvchining individual xolatini hisobga olgan holda turli yondashish va darajasiga qarab turib topshiriqlarni topshirish ko'zda tutiladi. Va mavzuni o'zlashtirishda qiyinchilikga duch kelayotgan o'quvchilar uchun alohida individual yondashiladi.

Ko'rgazmali texnologiyalar

Ayrim alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar eshitish orqali emas balki, ko'rish orqali ya'ni vizual yaxshiroq qabul qiladi ayniqsa gipperfaol o'quvchilarni diqqatini jamlash uchun judayam kerakli texnologiyalardan biri hisoblanadi.

Ko'rgazmali topshiriqlar orqali o'quvchi mavzuni tez o'zlashtirib oladi va tushunarli bo'ladi. O'quvchilarda diqqat va xotirani mustahkamlaydi. Rasimga qarab gap tuzadi, predmetlarni nomlaydi, o'quvchi kamroq yordam so'raydi ya'ni mustaqil bo'lishga harakat qiladi.

O'quv jarayoni qiziqarli bo'lib o'tadi.

O'quvchilarda diqqat, xotira, fikrlash va taxlil qilish ka'bi bilish jarayonlari rivojlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarda ko'rgazmali texnologiyani qo'llashdan asosiy maqsad har bir o'quvchining imkoniyatini ochish va ta'limda teng sharoit yaratish.

Xulosa

Inkluziv ta'lim sharoitida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy, emotsional va akademik rivojlanishini ta'minlash zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Mazkur tadqiqotda ushbu toifadagi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashda samarali bo'lgan pedagogik va ijtimoiy-psixologik texnologiyalar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda hamkorlikka asoslangan ta'lim, guruhli faoliyatlar va tengdoshlar bilan muloqotni kuchaytiruvchi texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Emotsional rivojlanishda esa ijobiy psixologik muhit yaratish, emotsional qo'llab-quvvatlash, motivatsiyani oshiruvchi usullar va individual yondashuv samarali hisoblanadi.

Akademik rivojlanishni ta'minlashda differensial ta'lim, moslashtirilgan o'quv materiallari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda individual ta'lim rejalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirib, ularning o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy pedagogika samaradorligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri — alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi hisoblanadi.

Bu jarayonda ular nafaqat akademik bilimlarni, balki jamiyatda mustaqil va munosib hayot kechirish uchun zarur bo'lgan hayotiy kompetensiyalarni ham egallaydilar. Ta'riflangan texnologiyalar kommunikativlik, o'ziga ishonch, mas'uliyat va bag'rikenglik kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalarni amaliyotda qo'llash to'laqonli integratsiya uchun muhimdir.

Shunday qilib, ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar har bir bolaning ta'lim olish va ijtimoiy hayotda ishtirok etish huquqini ta'minlovchi, insonparvarlik va teng imkoniyatlar tamoyillarini amalda ro'yobga chiqaruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inkluziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy, emotsional va akademik jihatdan rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Pedagoglar, mutaxassislar va ota-onalar hamkorligida qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari ushbu o'quvchilarning to'liq rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova D. Inkluziv ta'lim asoslari
2. Vygotskiy L.S. Bolalar rivojlanish psixologiyasi
3. Muhammedova M. Maxsus pedagogika - Toshkent, 2019
4. Nazarova G. Inkluziv ta'limda pedagogik texnologiyalar.
5. Salayeva N. Emotsional rivojlanish asoslari.
6. Logopediya asoslari. O'quv qo'llanma.
7. Васильева А.П. Inkluziv ta'limning pedagogik texnologiyalari.